

Aholining umumiyl daromadlari

(2020 - yilning yanvar-sentabr oylari bo'yicha dastlabki ma'lumotlar)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2020 - yilning yanvar-sentabr holatiga ko'ra, aholining umumiyl daromadlari **284,7 trln. so'mni** tashkil etdi.

284,7
trln. so'm

Aholining umumiyl
daromadlari

113,1 %

Aholi jon boshiga
umumiyl
daromadlarining
nominal o'sish
sur'ati

99,7 %

Aholining umumiyl
daromadlari real
o'sish sur'ati

- ✓ Aholi daromadlari bo'yicha real o'sish sur'atlarini hisoblashda narx omillari ta'sirini chiqarib tashlash maqsadida, infliyatsiya ko'rsatkichlarining asosiy turlaridan biri – iste'mol narxlari indeksidan (INI) foydalilaniladi. Iste'mol narxlарining o'zgarishi sababli o'tgan yilning mos davriga nisbatan aholi umumiyl daromadlarining real o'sish sur'ati **99,7 %** ni tashkil etdi.

8,3 mln. so'm

Aholi jon boshiga
umumiyl
daromadlari

110,9 %

Aholi jon boshiga
umumiyl
daromadlarining
nominal o'sish
sur'ati


97,7 %

Aholi jon boshiga
umumiyl
daromadlarining
real o'sish sur'ati

2020-yilning yanvar-sentabr oylarida (to'qqiz oy davomida), aholi jon boshiga umumiyl daromadlar hajmi Toshkent shahrida (16 360,6 ming so'm) hamda Navoiy (13 515,2 ming so'm), Buxoro (10 479,8 ming so'm), Toshkent (8 780,2 ming so'm) va Xorazm (8 602,3 ming so'm) viloyatlarida o'rtacha respublika darajasidan yuqori ko'rsatkichlar qayd etilganligi kuzatildi.




**2020- yilning yanvar-sentabr oylarida (to'qqiz oy davomida)
O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha aholi jon boshiga
umumiyl daromadlar hajmi, ming so'm**



✓ 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida (to'qqiz oy davomida), aholi jon boshiga umumiyl daromadlar hajmi eng quyi ko'rsatkichlari Farg'on'a viloyati (6 271,5 ming so'm), Qoraqalpog'iston Respublikasida (6 378,0 ming s'om) va Namangan (6 562,9 ming s'om) viloyatida qayd etildi.


2020- yilning yanvar-sentabr holatiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlarning real o'sish sur'atlari, % da

COVID-19 koronavirus pandemiyasi davrida aholi jon boshiga real daromadlar o'sishiga sezilarli ta'sir etdi. Aholi jon boshiga umumiy daromadlarning eng yuqori real o'sishi Navoiy (3,3 %) va Samarqand (1,5 %) viloyatlarida kuzatildi.




Shu bilan birga, Toshkent shahri (6,6 %), Sirdaryo (5,0 %) Andijon (4,2 %), Farg'ona (4,0 %), Xorazm (3,6 %), viloyatlarida aholi jon boshiga real daromadlarning pasayishi kuzatilgan.

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida aholining umumiy daromadlari tarkibi



✓ Aholining umumiy daromadlari hajmini sezilarli darajada o'sishi asosan umumiy daromadlar tarkibida 68,8 % ulushga ega bo'lgan mehnat faoliyatidan olingan daromadlar (yollanma ishchilarning daromadlari va mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar) va 25,7 % ni tashkil etuvchi transfertlardan olingan daromadlarning sezilarli o'zgarishi hisobiga yuzaga kelgan.

**2020- yilning yanvar-sentabr oylarida O'zbekiston Respublikasi
hududlari bo'yicha aholi umumiyl daromadlari tarkibi**
(*hududiy aholi umumiyl daromadlariga nisbatan, % da*)



■ mehnat faoliyatidan olingan daromadlar

■ shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar va mol-mulkdan olingan daromadlar

■ transfertlardan olingan daromadlar


✓ Hududlar bo'yicha aholi umumiyl daromadlari tarkibida mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning (yollanib ishlovchilarning ish haqi va mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar) eng yuqori ulushi Navoiy (82,6 %) viloyatida kuzatildi. Aksincha, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Samarqand, Farg'ona, Surxondaryo, Andijon, Namangan, Qashqadaryo viloyatlarida hamda Toshkent shahrida o'rtacha respublika darajasidan past ko'rsatkichni tashkil etdi.

✓ Shuningdek, Samarqand, Xorazm, Surxondaryo, Andijon, viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasi, transfertlardan olingan daromadlar aholining umumiyl daromadlariga nisbatan 30 % dan yuqori ulushni tashkil etdi.



2020- yilning yanvar-sentabr oylarida mehnat faoliyatidan olingan daromadlar

✓ Aholining umumiyl daromadlari tarkibida mehnat faoliyatidan olingan daromadlar (yollanma ishchilarning va mustaqil ravishda band bo'lisdan olingan daromadlar) sezilarli ulushni tashkil etadi.




✓ 2020-yilning yanvar-sentabr oylari ma'lumotlariga ko'ra, mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning umumiyl daromadlar tarkibidagi ulushi 68,8 % ni tashkil etdi.


✓ Mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning nominal o'sish sur'ati 2019-yilning mos davriga nisbatan 111,4 % ni tashkil etdi hamda aholi umumiyl daromadlari nominal hajmining 7,9 % ga o'sishini ta'minladi.



✓ Mehnat faoliyatidan olingan daromadlar yollanma ishchilarning daromadlari hamda mustaqil ravishda band bo'lisdan olingan daromadlardan tashkil topadi.




2020- yilning yanvar-sentabr oylarida yollanma ishchilarning daromadlari



2020- yilning yanvar-sentabr oylarida aholining umumiy daromadlari tarkibida yollanma ishchilarning daromadlari 27,5 % ni tashkil qildi. Joriy davrda yollanma ishchilar daromadlarining o'sish sur'ati 109,0 % ni tashkil etib, aholi umumiy daromadlari nominal hajmining 2,6 % o'sishini ta'minladi.



2020- yilning yanvar-sentabr holatiga ko'ra, hududlar bo'yicha yollanma ishchilar daromadlarining o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)



- ✓ Yollanma ishchilar daromadlarining eng yuqori nominal o'sish sur'ati Navoiy (117,4 %), Toshkent shahrida (114,1 %), Surxondaryo (109,9 %), Buxoro (109,2 %) va Jizzax (109,1 %) viloyatlarida qayd etildi.


**2020- yilning yanvar-sentabr oylarida Mustaqil ravishda band
bo'lishdan olingan daromadlar**

41,3%




Aholining umumiy
daromadlari tarkibidagi
ulushi

113,0%



2019- yilning yanvar-
sentabr oylariga
nisbatan nominal o'sish


**2020- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha umumiy
daromadlar tarkibida mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan
daromadlar ulushi, % da**



✓ Hududlarda
mustaqil ravishda
band bo'lishdan
oltingan daro-
madlarning eng
yuqori ulushi Jizzax
viloyatida 57,7 %
kuzatildi. Aksincha
Toshkent shahrida
va Qoraqalpog'iston
Respublikasida bu
ko'rsatgich o'tacha
respublika daraja-
sidan past bo'lgan.




2020- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar 1 % ga o'sganda aholining umumiylar daromadlari hajmi o'sishiga ta'siri, % da



Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning 1 % ga o'sishi umumiylar daromadlar hajmining 0,41 % ga o'sishiga olib keladi.

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida jami mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarda hududiarning ulushi



Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning asosiy ulushi Samarqand (11,2 %), Toshkent (10,1 %) va Qashqadaryo (9,6 %) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Kamroq ulushga ega bo'lgan hududlar Sirdaryo viloyati (2,6 %), Qoraqalpog'iston Respublikasi (3,3 %) hamda Navoiy (5,0 %) viloyati hisoblanadi.



2020- yilning yanvar-sentabr oylarida mol-mulkdan olingan daromadlar

Mol-mulkdan olingan
daromadlarning umumiyl
hajmi

9,5 trln. so'm



2019- yilning yanvar-sentabr
oylariga nisbatan o'sish
sur'ati

130,0 %




Aholining umumiyl
daromadlari tarkibidagi ulushi

3,3 %



Mol-mulkdan olingan daromadlar
tarkibi, % da

19,2 %




■ Foizlar va mualliflik haqi ■ Dividentlar

■ Boshqa mulkiy daromadlar

✓ Aholi umumiyl daromadlari hajmining o'zgarishiga mol-mulkdan olingan daromadlarning ta'siri juda kam. Joriy davrda mol-mulkdan olingan daromadlar aholi umumiyl daromadlari hajmining 0,9 % ga o'sishini ta'minladi.


2020- yilning yanvar-sentabr oylarida mol-mulkdan olingan daromadlar tarkibida hududlarning ulushi, % da



2020- yilning yanvar-sentabr oylarida mol-mulkdan olingan daromadlar tarkibida hududlarning ulushi Toshkent shahri hissasiga to'g'ri kelib, 58,8 % ni tashkil etdi. Toshkent (8,5 %), Samarqand (4,6 %) va Farg'ona (4,4 %) viloyatlari keyingi yuqori ulushga ega bo'lgan hududlar hisoblanadi.

Mol-mulkdan olingan daromadlarning o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati, % da

✓ 2020-yilning yanvar-sentabr oylari dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan mol-mulkdan olingan daromadlarning nominal o'sish sur'ati 130,0 % ni tashkil etdi. Hududlar bo'yicha eng yuqori o'sish sur'ati Jizzax viloyatida (154,2 %) va Qoraqalpog'iston Respublikasi (151,0 %)-da qayd etildi.




2020- yilning yanvar-sentabr oylarida transfertlardan olingan daromadlar

✓ Ushbu davrda aholining umumiyl daromadlari hajmida transfertlarning ulushi 25,7 % ni tashkil etdi.


✓ Transfertlardan olingan daromadlar ijtimoiy transfertlardan (pensiyalar, nafaqalar, stipendiyalar) va boshqa joriy transfertlardan olingan daromadlardan tashkil topadi. 2020- yilning yanvar-sentabr oylari dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, transfertlardan olingan daromadlarning 41,9 % ini ijtimoiy transfertlardan olingan daromadlar tashkil qilgan bo'lsa, 58,1 % ini boshqa joriy transfertlardan olingan daromadlar tashkil qildi. O'tgan davr mobaynida pensiya, nafaqa va stipendiyalarning o'zgarishi aholi umumiyl daromadlarining 2,3 % ga o'sishiga imkon berdi.

Transfertlardan olingan daromadlar tarkibi, % da




● Boshqa joriy transfertlar
● Ijtimoiy transfertlar

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida ijtimoiy transfertlar tarkibi, % da




✓ Ijtimoiy transfertlar tarkibida pensiyalar eng ko'p ulushni (80,9 %) tashkil qilgan bo'lsa, nafaqalar 17,1 % ni, stipendiyalar 2,0 % ni tashkil etdi.

✓ 2019- yilning mos davri ma'lumotlari bilan taq-qoslaganda pensiyalarning o'sish sur'ati 120,9 % ni, nafaqalarning o'sish sur'ati 159,2 % ni tashkil etdi.



✓ 2020 - yilning yanvar-sentabr oylarida aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida, jami 5,2 trln. so'm miqdorida nafaqa va moddiy yordamlar ajratildi. Shundan 50,5 % i budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hisobidan moliyalashtiriladigan davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar va 49,5 % i respublika va mahalliy budget mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan.

Hududlar bo'yicha ijtimoiy nafaqalarning shakllanish manbalari, % da




2020- yilning yanvar-sentabr oylarida boshqa joriy transfertlar

2020- yilning yanvar-sentabr oylari bo'yicha boshqa joriy transfertlar tarkibiga kiruvchi respublika tashqarisidan kelib tushgan pul o'tkazmalari hajmining nominal o'sish sur'ati 110,8 % ni tashkil etdi. Aholining umumiyl daromadlari tarkibidagi ulushi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,4 % punktga tushib, 14,9 % ni tashkil etdi. Ushbu daromadlarning o'zgarishi aholi umumiyl daromadlari nominal qiymatining 1,6 % ga o'sishini ta'minlab berdi.




2020- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha aholining umumiyl daromadlari tarkibida respublika tashqarisidan kelib tushgan pul o'tkazmalari hajmining ulushi, % da



2020- yilda aholining umumiyl daromadlari tarkibida respublika tashqarisidan kelib tushgan pul o'tkazmalarining eng yuqori ulushi Samarqand va Xorazm viloyatlarda (22,3 %) kuzatildi. Shuningdek, Andijon (20,1 %), Surxondaryo (19,6 %) viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasida (18,7 %), Namangan (16,7 %), Farg'ona (16,3 %), Qashqadaryo (16,2 %) va Buxoro (15,2 %) viloyatlarda respublika darajasidan yuqori ulushni tashkil etdi.




2020- yilning yanvar-sentabr oylarida aholining umumiylar daromadlari tarkibida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlar



✓ 2020- yilning yanvar-sentabr oylari dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, aholining umumiylar daromadlari hajmida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning ulushi 58,1 % ni, boshqa daromadlar 41,9 % ni tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha aholining umumiylar daromadlari tarkibida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning ulushi, % da



✓ Kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning hududiy aholi umumiylar daromadlaridagi ulushi turlicha eng yuqori ulush Jizzax viloyatida (68,1 %) kuzatildi. Eng kam ulush esa Toshkent shahrida (44,7 %), Qoraqalpog'iston Respublikasida (48,8 %), hamda Navoiy (51,6 %) va Farg'ona (57,0 %) viloyatlarida qayd etildi.

Aholi turmush darajasi va kuzatuvalari
statistikasi boshqarmasi
Tel.: +998 71 202-81-66